

Rangtasvir darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda master-klass metodining tutgan o'рни

Mohirjon Adhamjon-o'g'li Oktyabrov
Oktyabrovmoahirjon1995@gmail.com
Namangan davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada rangtasvir darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda master-klass metodining o'рни yoritilgan. Master-klassning ta'lim jarayonidagi vazifalari, uning talabalarda amaliy ko'nikma, kuzatuvchanlik, badiiy tafakkur va o'z ishiga tanqidiy yondashuvni shakllantirishdagi ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, mazkur metod orqali rang, shakl, yorug'lik, kompozitsion yechim kabi tasviriy san'at unsurlarini o'rgatishning samarali jihatlari ko'rsatib berilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, master-klass mashg'ulotlari talabaning ijodiy izlanishga bo'lgan qiziqishini oshirishi, mustaqil ishlarni tashkil etish jarayonini yengillashtirishi va o'ziga xos badiiy tajriba orttirishiga xizmat qilishi aniqlangan. Maqola mazmuni rangtasvir fanini o'qitishda amaliy mashg'ulotlar sifatini oshirish hamda talabalarning mustaqil ijodiy rivojlanishini ta'minlash uchun muhim ilmiy-pedagogik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: rangtasvir, tasviriy san'at, master-klass, mustaqil ijodiy faoliyat, badiiy tafakkur, amaliy mashg'ulot, rang uyg'unligi, kompozitsiya, kuzatuvchanlik, tasvirlash jarayoni, o'quvchi faoliyati, pedagogik usul

The role of the master class method in developing students' independent creative activity in painting lessons

Mohirjon Adhamjon-oglu Oktyabrov
Oktyabrovmoahirjon1995@gmail.com
Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article highlights the role of the master class method in developing students' independent creative activity in painting lessons. The functions of master classes in the educational process are analyzed, including their significance in fostering practical skills, observational abilities, artistic thinking, and critical approaches to one's work among students. Additionally, the article demonstrates the effective aspects of using this method to teach elements of fine art such as color, form, light, and compositional solutions. According to the research findings, master classes have been shown to increase students' interest in creative exploration,

facilitate the organization of independent work, and contribute to gaining unique artistic experiences. The content of the article provides important scientific and pedagogical recommendations for enhancing the quality of practical sessions in painting instruction and ensuring the independent creative development of students.

Keywords: painting, fine arts, masterclass, independent creative activity, artistic thinking, practical training, color harmony, composition, observational skills, depiction process, student activity, pedagogical method

KIRISH

Bugungi kunda rangtasvir ta'limi jarayonida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki tasviriy san'atni puxta egallash, undagi ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'z fikrini badiiy vositalar orqali ifodalash hamda san'atga bo'lgan munosabatni to'g'ri yo'naltirish faqatgina nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmaydi. Talabaning rang, kompozitsiya, shakl, ritm, ifoda vositalari va tasvirga yondashuvini mustaqil ravishda rivojlantirish uchun malakali ustoz ko'rsatmasi asosida amaliy mashg'ulotlarni tashkil qilish zarur bo'ladi. Shu ma'noda, master-klass metodi rangtasvir darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini yo'lga qo'yishda samarali usul sifatida e'tirof etilmoqda.

Master-klass - bu o'qituvchi tomonidan mashg'ulot jarayonida ish bosqichlarini amalda ko'rsatish, tushuntirish va namuna yaratish orqali talabalarga nazariya va amaliyotni uyg'un ravishda o'rgatish usulidir. Bunda talaba tayyor bilimni eshitmaydi, balki ijodiy jarayonni ko'radi, kuzatadi va undan xulosa chiqaradi. Bu esa uning mustaqil ishlashiga, o'z yo'lini topishiga, ustoz ko'rsatgan jihatlarni qayta takrorlab, o'ziga mos usulda ijod qilishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Rangtasvir ta'limida talabaning mustaqil ishlash ko'nikmasini rivojlantirish uchun amaliy mashg'ulotlar muhim o'rin tutadi. O'quvchi bo'yoq, cho'tka, tuvallar bilan ishlash jarayonida natijaga erishish uchun izlanadi, xato qiladi, xatosini tuzatadi, o'rganadi va tajriba orttiradi. Bu jarayonda o'qituvchining amaliy ko'rsatmasi nihoyatda ahamiyatlidir. Master-klass mashg'ulotida o'qituvchi rangtasvirning har bir bosqichini izchil ko'rsatadi, rang tanlash, bo'yoq surish, shakl berish, yorug'lik va soya tushirish kabi jarayonlarni amaliy misolda tushuntiradi. Talaba bu jarayonni kuzatar ekan, o'z ishi uchun zarur bo'lgan ma'lumotni ongli ravishda qabul qiladi.

Mazkur metod bir tomondan talabaning kuzatuvchanligini oshirsa, ikkinchi tomondan unda fikr yuritish, solishtirish, tahlil qilish, o'z ishini baholay olish kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Eng muhimi, u talabani mustaqil ishlashga undaydi. Mustaqil ijod esa san'at ta'limida eng yuqori bosqich hisoblanadi.

Rangtasvirda kompozitsiya yechimi, rang uyg'unligi, tasvirning jonli chiqqan yoki chiqmangani, qaysi rang qaysi holatda o'zini qanday tutishi kabi masalalar kitobdan o'qib o'rganiladigan bilimlar emas. Ular amaliy mashg'ulot jarayonida shakllanadi. Master-klassda o'qituvchi:

- ishni boshlash tartibini,
- bo'yoqlarni uyg'un qo'llashni,
- asosiy ranglarni tanlashni,
- tasvirlanayotgan narsa yoki voqeaning mazmunini ochishni,
- yakuniy natijani to'g'ri baholashni na'muna orqali ko'rsatadi.
- Bu esa talaba uchun aniq yo'nalish yaratadi.

NATIJAR VA MUHOKAMA

Talaba ustozning har bir harakatiga e'tibor beradi, undan saboq oladi, so'ng o'z ishi davomida shu bilimlardan foydalanadi. Shu tariqa u o'z ijodiy tajribasini boyitadi, o'ziga xos ifoda uslubini shakllantiradi. Shuning uchun master-klass usuli rangtasvir fanida o'quv jarayonining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Master-klass quyidagi natijalarga erishishga yordam beradi:

- Mustaqil fikrlash paydo bo'ladi.

Talaba ustoz ko'rsatgan namunani ko'rib, uni takrorlabgina qolmay, o'zicha izlanadi.

- Ijodiy yondashuv shakllanadi.

U mashg'ulot davomida olingan ma'lumotdan kelib chiqib, o'z tasvirini yaratadi.

- Topqirlik va kuzatuvchanlik ortadi.

Ranglarning o'zaro munosabatini idrok etish mustahkamlanadi.

- Amaliy tajriba ko'payadi.

Tajriba orttirish orqali xatolar kamayadi va mahorat oshadi.

- O'zini baholash ko'nikmasi shakllanadi.

Talaba o'z ishiga tanqidiy yondashadi, xulosalar chiqaradi.

Bu jarayonning barchasi rangtasvir o'qitishidagi asosiy maqsad - talabaning mustaqil ijodkor shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Rangtasvir darslarida master-klass quyidagi tartibda tashkil qilinadi:

- Mavzuni ochish - nima tasvirlanishini aytish
- Ish jarayonini ko'rsatish - chizish, rang berish, tus tushirish jarayoni
- Talabalar faoliyatini boshlash - mustaqil bajarish
- Ustoz maslahatlari - xato va to'g'ri yechimlarni ko'rsatish
- Natijani ko'rib chiqish - tayyor ishlarga baho berish

Bu bosqichlar talabaning amaliyotga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi va o'z ustida ishlashga undaydi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida rangtasvir darslarida talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirish - san’at ta’limining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu jarayonda master-klass metodi o‘ziga xos o‘rin egallaydi. Chunki ushbu metod:

- talabaning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi,
- amaliy ko‘nikmalarini mustahkamlaydi,
- o‘z ishlari ustida izlanishga undaydi,
- san’atga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi.

Demak, rangtasvir fanida master-klass mashg‘ulotlarini muntazam yo‘lga qo‘yish talabalarning mustaqil ijodiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, ular kelajakda san’at sohasida o‘z o‘rnini topishi uchun poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sattarov, F. I. (2024). Practical and theoretical recommendations on drawing landscape compositions. *Science and Education*, 5(12), 238-241.
2. Islomovich, S. F. QALAMTASVIR MASHG‘ULOTLARIDA TALABALARNI KOMPOZISIYA OID BILIM VA MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH.
3. Raximov, H. (2025). O‘QUVCHILARGA MANZARA JANRINI O‘RGATISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI O‘RNI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 214-218.
4. Раҳимов, Х. (2023, December). ТАСВИРИЙ САЊЪАТ НАМУНАЛАРИ ОРҚАЛИ САЊЪАТШУНОСЛИК СОЊАСИГА ТАЙЁРЛАШ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE on the topic: "Priority areas for ensuring the continuity of fine art education: problems and solutions"* (Vol. 1, No. 01).
5. Raximov, H., & Usmonkulova, R. (2025). O‘ZBEKISTONDA RANGTASVIR SAN‘ATI RIVOJLANISHI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 238-242.
6. Umarjon o‘g‘li, H. R. (2021). Technologies for Improving Composition and Drawing Skills Based on the Rules of Composition. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(12), 765-767.
7. Komoldinov, S. (2025). MANZARA CHIZISHNING NAZARIY ASOSLARI VA RASSOMLAR ASARLARI TAXLILI MANZARA CHIZISHNING NAZARIY ASOSLARI VA RASSOMLAR ASARLARI TAXLILI. *Universal xalqaro ilmiy jurnal*, 2(4.3), 264-267.
8. Komoldinov, S. J. O. G. L., & Isaboyeva, M. I. Q. (2025). Manzara kompozitsiyasini rangtasvir texnologiyasi asosida yaratishning badiiy ifoda vositalari. *Science and Education*, 6(11), 932-937.
9. Jomoldin o‘g‘li, K. S. *SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT*.

10. Xasanboy o'g'li, B. A. TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK QOBILYATLARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI. Economy and Innovation ISSN, 2545-0573.

11. Xasanboy O'g'li, B. A. O'quv jaryonida qalamchizgi va qoramalarni bajarishda talabalarni kasbiy-pedagogik kompetensiyasini rivojlatirish texnologiyasi. Scientific bulletin of namsu-научный вестник намгу-namdu ilmiy Axborotnomasi–2023-yil_7-son.

12. Boltaboev, A. X. O. G. L. (2025). Technologies for the development of students' creative abilities in individual classes. Science and Education, 6(11), 909-911.

13. Badriddinovich, O. B. (2024). TASVIRIY SAN'AT RIVOJIDA UYG'ONISH DAVRI AHAMIYATI. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7, 6-10.

14. Suyarov, N. T., & Erkaev, E. T. (2021). IMPLEMENTATION OF NATIONAL-REGIONAL COMPONENT IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 2(08), 117-121.

15. Suyarov, N. T. (2021). Implementation of the national-regional component in the educational process. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities, 11(11), 511-514.

16. Abdullayev, O. E. (2021). Establishment and development of Uzbek theater. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 434-440.

17. Abdullayev, O. K. (2025). TALABALARNING KOMPOZITSIYA TUZISH VA TASVIRLASH KO 'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 1-5.

18. Matkarimov, A. M. A. (2024). ANIQ FANLARDA MUSTAQIL TA'LIMNI TASHKIL ETISHDA CHIZMA GEOMETRIYA VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANINING O 'RNI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 1(12), 375-377.

19. Mirziyoyev, S. (2018). TASVIRIY SAN'AT MASHG'ULOTLARINING ZAMONAVIY TA'LIMI Abdullayev O'ktamjon Ergashevich NamDU TSMG kafedrasi mudiri, dotsent. НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ, 9.

20. Oktabrov, M. A. (2025, December). Ways to enhance students' artistic and aesthetic taste in fine arts lessons. Claritas Conference Platform, 3, 8–12.

21. Oktabrov, M. A. (2025). The emotional expression of artists through colors and the psychological effect of colors in artworks. European Review of Contemporary Arts and Humanities, 1(4), 30–34.

22. Oktabrov, M. A. (2025). Innovatsion yondashuv asosida bolalarni dekorativ rasm chizishga o'rgatishning didaktik ahamiyati. IMRAS, 8(6), 142–147.

23. Oktabrov, M. A. (2025). Natyurmort tuzish va uni tasvirlash usullari. *Intellectual Education Technological Solutions and Innovative Digital Tools*, 3(33), 75–80.